



AJRASHGAN OILALARDA OTA-ONA MUNOSABATLARINING MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR HISSIIY-EMOTSIONAL HOLATIGA TA'SIRI

Dexkanova Aziza Shokirovna

Xalqaro Nordik universiteti, Pedagogika va psixologiya

yo'nalishi magistranti

Dehkanovaaziza40@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15489709>

ARTICLE INFO

Received: 15th May 2025

Accepted: 19th May 2025

Published: 22nd May 2025

KEYWORDS

ajrashgan oilalar, maktab yoshidagi bolalar, ota-ona munosabatlari, hissiy-emotsional holat, korrelyatsiya, "Oila rasmi", Spilberger-Xanin testi, Rene Jelya metodikasi.

ABSTRACT

Ushbu maqolada ajrashgan oilalarda tarbiyalanayotgan maktab yoshidagi bolalarning hissiy-emotsional holatiga ota-ona munosabatlarining ta'siri o'rganildi. Tadqiqotda G. Xomentauskasning "Oila rasmi" proyektiv metodikasi, Spilberger-Xanin tashvish darajasi testi va Rene Jelya metodikasi qo'llanilib, natijalar K. Pirsonning r-korrelyatsiyasi yordamida tahlil qilindi. Tadqiqot ishtirokchilari 80 nafar maktab yoshidagi bola bo'lib, ularning oilaviy muhitga bo'lgan munosabati va hissiy-emotsional holati o'lchandi. Korrelyatsiya natijalari ota-ona munosabatlarining bolalarning xavotir darajasi, hissiy holati va o'z-o'zini anglashiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Mazkur natijalar ajrashgan oilalardagi psixologik yordam va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning muhimligini tasdiqlaydi.

Oila – inson hayotidagi eng muhim ijtimoiy institutlardan biridir. Undagi munosabatlar orqali shaxs ijtimoiylashadi, emotsional ehtiyojlarini qondiradi va o'zini anglashga intiladi. Ayniqsa, bola shaxsining shakllanishida ota-ona munosabatlarining bevosita ta'siri muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-onaning ajrashuvi esa bolada stress, xavotir, o'ziga ishonchsizlik, ijtimoiy yakkalanish kabi holatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Ushbu maqolada ajrashgan oilalarda tarbiyalanayotgan maktab yoshidagi bolalarning hissiy holati, o'z-o'zini baholashi va ijtimoiy moslashuv darajasi psixodiagnostik metodlar asosida o'rganiladi.

G.Xomentauskasning "Oila rasmi" metodikasi esa bolaning oilaviy muhitni qanday qabul qilishini aniqlashda muhim bo'ldi. 45 nafar bola o'z rasmlarida xavotir va g'am holatini ifodalagan. 38 nafar bola o'zini chizmada chetda yoki mavjud emas tarzda ifodalagan, bu ularning o'ziga bo'lgan past bahosi va e'tibor yetishmasligini bildiradi. Bundan tashqari, 40 nafar bola faqat onani chizgan, bu esa ota bilan hissiy aloqaning yo'qligini, ya'ni ajrashuvdan keyingi ruhiy bo'shliqni ko'rsatadi. Ota-ona har ikkisini ham chizgan va ijobiy obraz yaratganlar atigi 15 nafar bo'ldi.

Ushbu natijalar shuni ko'rsatmoqdaki, ajrashgan oilalarda o'sayotgan maktab yoshidagi bolalarda emotsional noaniqlik, xavotir va past ijtimoiy moslashuv darajalari kuzatilmoqda. Korrelatsion tahlil natijalariga ko'ra, bolalarning shaxsiy va vaziyatga doir tashvishi bilan oila

rasmidagi rad etilish, nizolar va emotsional loqaylik o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjud. Bu esa oiladagi nizolar va ota-onaning ajrashuvi bola ruhiyatiga bevosita ta'sir qilayotganini tasdiqlaydi. Ajrashgan oilalarda o'sayotgan maktabgacha yoshdagi bolalar, ayniqsa, otasiz o'sgan sharoitda xavotirlanish darajasi yuqori bo'lib, ular o'z-o'zini baholashda qiynalishi, oilaviy tasvirlar orqali o'z hissiy tangliklarini ifodalashi va ijtimoiy moslashuvda qiyinchiliklar bilan to'qnash kelishi mumkin. Bu holatlar profilaktik psixologik yondashuvlar va oilaviy maslahatlar orqali erta aniqlanib, bartaraf etilishi zarur.

Tadqiqotning diagnostik bosqichida ota-onasi ajrashgan oilalarda o'sayotgan maktab yoshidagi bolalarning hissiy-emotsional holatini aniqlash maqsadida "Oila daraxti" proektiv metodikasi qo'llanildi. Tadqiqotda Toshkent shahri maktablaridan tanlab olingan 80 nafar bola ishtirok etdi. "Ishonchli" munosabat turi - 23% , "Noaniq" - 28%, "Ziddiyatli" - 31%, "Begona" - 18% ni tashkil qildi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, bolalarning salmoqli qismi o'z oilasida hissiy jihatdan ziddiyat, noaniqlik yoki begonalik hissiyotlarini boshdan kechirmoqda. Ayniqsa, "ziddiyatli" va "noaniq" munosabat turlari yuqori foizda aniqlangani bu holat ajrashgan oilalarda bolalar psixologiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganining dalilidir. "Ishonchli" munosabat turi nisbatan kam uchrashi esa bu bolalarning o'zlarini ota-onasi bilan barqaror, mehrlil aloqada his qilish imkoniyatlari cheklanganini anglatadi.

1 - jadval:

G.Xomentauskasning "Oila rasmi" bo'yicha olingan natijalar

Shkala nomi	Ko'rsatkich turi	Bola soni (N=80)	Foizi (%)
Emotsional holat	Quvonch	10	12.5%
	Xavotir, g'am	45	56.25%
	Beparvolik, hissiy loqaylik	20	25%
	Nomutanosib ifodalar (aralash)	5	6.25%
O'z-o'zini aks ettirish	Markazda, katta holatda	22	27.5%
	Chetda, kichik yoki mavjud emas	38	47.5%
	Notabiiy joylashuv (yuqorida, pastda, teskari)	20	25%
Ota-ona bilan yaqinlik	Faqat onani chizgan (iliq obrazda)	40	50%
	Faqat otani chizgan yoki salbiy obrazda	10	12.5%
	Har ikkisini ham chizgan, ijobiy	15	18.75%
	Ota-onani umuman chizmagan	15	18.75%
Ijtimoiy moslashuv	Ko'p odam (do'stlar, sinfdoshlar) bilan chizilgan	25	31.25%
	Yolg'iz yoki bitta odam bilan	35	43.75%
	Odamlar umuman yo'q	20	25%

Xavotir va g'am holatida bo'lgan bolalar soni 45 nafarni tashkil etib, bu umumiy ishtirokchilarning 56,25% ini tashkil qildi. Bu ko'rsatkich ajrashgan oilalarda yashayotgan bolalar emotsional beqarorlik va xavfsizlik hissining yetishmasligi muammosiga duch kelayotganini ko'rsatadi. Beparvolik va hissiy loqaylik holati 25% ni tashkil qilgan bo'lib, bu holat ham bolalarda hissiy izolyatsiya, o'zini yolg'iz his qilish, hissiy bog'lanishning susayganligini anglatadi. Faqat 12,5% bola quvonch holatini aks ettirgan bo'lsa, bu ajrashgan

oilalarda yashovchi bolalar orasida ijobiy emotsional tajriba yetishmasligini bildiradi. 6,25% bolada esa nomutanosib (aralash) emotsiyalar kuzatilgan bo'lib, bu ichki hissiy ziddiyatlar va o'zgaruvchan psixologik holat belgisi sifatida qaraladi.

O'z-o'zini aks ettirish shkalasida bolalarning 47,5% o'zini chetda, kichik holatda yoki umuman aks ettirmagan. Bu o'z-o'zini qadrlamaslik, past o'zini baholash, o'z joyini oilada yoki ijtimoiy muhitda aniq bilmaslik bilan bog'liq. 25% (20 nafar) bola o'zini notabiiy (yuqorida, pastda yoki teskari) joylashtirgan. Bu esa o'ziga bo'lgan chalkash munosabat, psixologik beqarorlik yoki o'zini "nomuvofiq" his qilishni anglatadi. Faqat 27,5% bola o'zini markazda va aniq shaklda aks ettirgan, bu esa yuqorida ko'rsatilgan ko'rsatkichlar fonida juda past foiz hisoblanadi.

Ota-ona bilan yaqinlik shkalasida 50% bola faqat onani ijobiy obrazda chizgan. Bu ajrashgan oilalarning aksariyatida bolalar bilan asosan onalar yashayotgani va u bilan emotsional bog'liqlik kuchli ekanidan dalolat beradi. 12,5% bola faqat otani chizgan yoki uni salbiy obrazda aks ettirgan. Bu otaga nisbatan salbiy hissiyotlar yoki aloqaning yo'qligini ko'rsatadi. 18,75% bola har ikki ota-onani ijobiy obrazda chizgan bo'lsa-da, yana 18,75% umuman ota-onani aks ettirmagan. Bu esa bola hayotida ota-onaning emotsional mavjudligi haqida shubha tug'diradi va ehtimoliy ruhiy bo'shliqlardan dalolat beradi.

Ijtimoiy moslashuv qismida faqat 31,25% bola rasmda ko'p odamlar – do'stlar yoki sinfdoshlar bilan birga bo'lgan holatni aks ettirgan. Bu ularning ijtimoiy faolligi yaxshi darajada ekanini ko'rsatadi. 43,75% bola esa yolg'iz yoki faqat bir odam bilan rasm chizgan. Bu holat ijtimoiy izolyatsiya yoki yaqin do'stlik munosabatlarining yo'qligidan darak beradi. 25% bola esa odamlar umuman yo'q bo'lgan rasm chizgan, bu esa uning jamiyatdan chekinishga moyilligi yoki o'zini yolg'iz his qilayotganini ko'rsatadi.

Bolalarning aksariyati oilaviy mavzuga xavotir yoki g'am bilan munosabat bildirgan. Ko'pchilik bola o'zini oiladan chetda deb his qilgan (o'z-o'zini daraxtda chetda yoki kichik qilib chizgan). Onalar bilan emotsional aloqa kuchliroq bo'lib, otalar ko'pincha yo'q yoki salbiy tarzda chizilgan. Ijtimoiy moslashuv past darajada, bolalar ko'p hollarda yolg'izlikni aks ettirgan. Ajrashgan oilalarda yashovchi maktab yoshidagi bolalar orasida xavotir, g'amginlik, o'ziga ishonchsizlik, hissiy befarqlik va ijtimoiy yakkalanish darajasi yuqori ekani ushbu tadqiqot natijalarida yaqqol ko'zga tashlandi. Ota-onalar o'rtasidagi ziddiyatli munosabatlar yoki biri bilan aloqa yo'qligi bolalarning o'z-o'zini anglashiga va tashqi dunyo bilan bog'lanishiga salbiy ta'sir qilmoqda.

Tadqiqotning navbatdagi bosqichida Spilberger–Xanin tashvish darajasi testi bola tashvishlanayotganini qanchalik sezadi va bu hissiyot doimiy yoki vaqtinchalikligini aniqlash, bola tashvishining sabablarini aniqlash uchun keyingi psixologik yondashuvlarni rejalashtirish uchun umumiy statistik ma'lumotlar olindi.

2 - jadval

Spilberger–Xanin tashvish darajasi testi (bolalar uchun)

Reaktiv tashvish darajalari (ya'ni, hozirgi holatdagi xavotir):

Daraja	Bola soni	Foiz
Past darajadagi tashvish (≤ 30)	17	21%
O'rtacha darajadagi tashvish (31–44)	38	48%
Yuqori darajadagi tashvish (≥ 45)	25	31%

Shaxsiy tashvish darajalari (ya'ni, doimiy xavotirga moyillik):

Daraja	Bola soni	Foiz
Past darajadagi tashvish (≤ 30)	13	16%
O'rtacha darajadagi tashvish (31–44)	36	45%
Yuqori darajadagi tashvish (≥ 45)	31	39%

Ushbu natijalar shuni ko'rsatadiki, bolalarning salmoqli qismi doimiy tashvish va xavotir hissi bilan yashaydi. Xususan, 31% bola reaktiv tarzda yuqori tashvishga ega bo'lsa, 39% bola doimiy (shaxsiy) yuqori tashvish darajasiga ega. Bu holat ularning ota-onasi ajrashganidan so'ng hissiy barqarorligiga putur yetganini, tashvish holati esa vaqtinchalik emas, balki doimiy tusga kirayotganini ko'rsatadi.

O'rtacha darajadagi tashvish eng ko'p uchragani esa maktab yoshidagi bolalarda ruhiy qo'llab-quvvatlash zarurligini ta'kidlaydi. Ushbu tahlillar maktab psixologlari, ijtimoiy pedagoglar va ota-onalar bilan hamkorlikda individual yondashuv asosida bolalar bilan ishlashni talab qiladi. Navbatdagi tadqiqotimizning navbatdagi bosqichi — uchinchi qism Rene Jelya proyektiv metodikasi maktab yoshidagi bolalarning hissiy holati, kayfiyati, xavotir darajasi, tashqi dunyoga va o'ziga bo'lgan munosabat darajasi tahlil qilindi.

3 - jadval

Rene Jelya proyektiv metodikasi

T/r	Emotsional holat	Tanlagan bolalar soni	Foiz (%)
1	Quvonchli	20	25%
2	Xursand	10	12.5%
3	Betaraf	12	15%
4	Xavotirli	15	18.75%
5	G'amgin	10	12.5%
6	Jahldor	8	10%
7	Hayrat	3	3.75%
8	Charchagan	2	2.5%
	Jami	80 bola	100%

Tadqiqotimizning quvonch shklasi 25% tashkil qilib, bu ko'rsatkichdan shuni anglash mumkinki, ajrashgan oilada yashayotgan har to'rtinchi bola o'zini quvonchli his qilmoqda. Bu holat bolalarning atrofdagi ijobiy sharoitlar, qo'llab-quvvatlovchi muhit yoki barqaror psixologik moslashuvga ega ekanini ko'rsatadi. Navbatdagi xursandlik shkalasi 12.5% bu natija shuni bildiradiki, ayrim bolalar hayotdagi voqealarni hali ham ijobiy baholashga moyil. Biroq bu holat chuqur emotsional barqarorlik emas, balki yuzaki ijobiy kayfiyat bo'lishi mumkin. Betaraflik 15% bolalarda hissiy o'zgarishlarga befarqlik, ichki hissiyotlarni bostirish holatini ko'rsatadi. Bu esa ota-onaning ajrashuvi oqibatida bolalarda hissiy befarqlik yoki o'zini tutib turish mexanizmining shakllanishidan dalolat beradi. Xavotir nisbatan yuqori 18.75% va bu bolalarda ajrashuv natijasida ishonchsizlik, xavfsizlikning yo'qolishi va psixologik bosim mavjudligini anglatadi. Xavotir darajasi hissiy va ruhiy holatga salbiy ta'sir qiladi. G'amgin darajasi 12.5% va ko'rsatkich bolaning ota-onaning ajralishiga bo'lgan iztirobi bilan izohlash mumkin. G'amginlik hissi bolaning chuqur emotsional zarbani boshdan kechirayotganini ko'rsatadi. Jahldorlik 10% va bolalarda ichki norozilik, agressiya yoki tushunarsiz holatlarga nisbatan salbiy reaksiya bo'lishi mumkin. Bu holat ota-onalar bilan bo'lgan emotsional aloqaning buzilganidan dalolat beradi. Hayrat hissi 3.75% va bu bolaning atrofdagi voqealarni hali ham tushunishga urinayotganini bildiradi. Ular uchun ota-onaning ajralishi hali ongli darajada to'liq qabul qilinmagan bo'lishi mumkin. 2.5% bola esa emotsional va jismoniy charchoqni bildiradi. Bola o'zining hissiy holatini og'ir, toliqishli deb his qilayotganligi tadqiqot natijalaridan ko'rishimiz mumkin.

Ushbu tahlil natijalariga ko'ra ijobiy emotsiyalar (quvonchli, xursand) 37.5% ni tashkil qilmoqda, bu esa ayrim bolalarda hali ham barqarorlik mavjudligini bildiradi. Salbiy va betaraf emotsiyalar (xavotirli, g'amgin, jahldor, betaraf, charchagan) jami 58.75% bo'lib, bu

ajrashgan oilalarda tarbiyalanayotgan bolalarda sezilarli darajada emotsional iztirob, xavotir va befarqlik mavjudligini ko'rsatadi. Bu natijalar shuni anglatadiki, ajrashgan oiladagi bolalar bilan emotsional-psixologik profilaktika ishlari olib borish muhimdir.

Tadqiqot davomida bolaning o'z oilasi haqida tasavvurlarini bilish maqsadida o'tkazilgan "Oila rasmi" proektiv metodikasining har bir shkalasi bo'yicha o'zaro bog'liqlik darajasi o'rganib chiqildi. Tadqiqotda olingan natijalarga ko'ra, Reaktiv tashvish va shaxsiy tashvish o'rtasida yuqori ijobiy bog'lanish mavjud. Xavotir va g'am emotsiyasi ko'rsatgan bolalarda tashvish darajasi yuqori, ota-onaga yaqinlik past, ijtimoiy moslashuv zaif hamda o'z-o'zini chetda, kichik shaklda aks ettirgan bolalarda o'ziga ishonch, o'z-o'zini qadrlash past ekanligi aniqlandi. Do'stlar bilan chizilgan bolalar ijtimoiy jihatdan moslashgan va ularning xavotiri past bo'lar ekan.

4 - jadval.

Ajrashgan oilalarda ota-ona munosabatlarning maktab yoshidagi bolalar hissiy-emotsional holatiga ta'sirini aniqlash metodikalarining o'zaro korrelyatsiya bog'liqligi ko'rsatgichlari

(K.Pirsonning r-korrelyatsiyasi)

O'zgaruvchi / Metodika	Reaktiv tashvish	Shaxsiy tashvish	Emotsional holat (xavotir/g'am)	O'z-o'zini aks ettirish (markazda/chetda)	Ota-onaga yaqinlik (iqlim)	Ijtimoiy moslashuv	Umumiy xavotir	Tortnchoqlik	O'z-o'zini qadrlash	O'z-o'zini hurmat qilish	O'ziga bo'lgan ishonch
Reaktiv tashvish	1	0.68***	0.51***	-0.23*	-0.31*	-0.29*	0.84**	0.61**	-0.43*	-0.46***	-0.44**
Shaxsiy tashvish		1	0.54***	-0.27**	-0.34*	-0.33*	0.88**	0.65**	-0.47**	-0.51***	-0.48**
Emotsional holat (xavotir/g'am)			1	-0.45***	-0.49**	-0.41**	0.59**	0.52**	-0.38**	-0.42***	-0.40**
O'z-o'zini aks ettirish (chetda, kichik)				1	0.32*	0.29*	-0.35**	-0.26**	0.51**	0.55***	0.50**
Ota-onaga yaqinlik (iliq/tarqoq obraz)					1	0.36*	-0.41**	-0.33**	0.48**	0.52***	0.50**
Ijtimoiy moslashuv (do'stlar mavjudligi)						1	-0.29**	-0.24*	0.39**	0.41***	0.42**
Umumiy xavotir							1	0.72**	-0.49*	-0.52	-0.50**

(testlar kesimida)									**	***	*
Tortinchoqlik							1	-	0.35*	-	0.36**
O'z-o'zini qadrlash								1	0.62***	0.38***	0.66**
O'z-o'zini hurmat qilish									1	0.90**	*
O'ziga bo'lgan ishonch										1	

O'tkazilgan korrelyatsion tahlil natijalariga ko'ra, maktabgacha yoshdagi bolalarning tashvishlanish darajasi ularning emotsional holati, oilaviy munosabatlari, o'z-o'zini baholash xususiyatlari va ijtimoiy moslashuv darajasi bilan sezilarli darajada bog'liqligi aniqlandi.

Birinchi, reaktiv tashvish (ya'ni bolaning hozirgi vaziyatlardagi xavotir darajasi) va shaxsiy tashvish (doimiy xavotirga moyillik) o'rtasida kuchli musbat korrelyatsiya kuzatildi ($r=0.68$). Bu degani, vaziyatga doir tashvish yuqori bo'lgan bolalarda shaxsiy tashvish ham ko'p uchraydi.

Shuningdek, reaktiv va shaxsiy tashvish ko'rsatkichlari bolalarning umumiy xavotir, tortinchoqlik darajasi bilan ham ijobiy bog'liq ($r=0.84$; $r=0.88$). Bu bolalarda tashvish kuchaygan sari tortinchoqlik holatlari ham kuchayishini bildiradi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, xavotirlanish darajasi oshgan bolalar odatda o'z-o'zini past baholaydilar, o'zlariga nisbatan isfatsizlik hissi kuchli bo'ladi. Masalan, reaktiv tashvish bilan o'z-o'zini qadrlash o'rtasida ($r=-0.43$), o'zini hurmat qilish ($r=-0.46$), va o'ziga bo'lgan ishonch ($r=-0.44$) o'rtasida manfiy korrelyatsiya mavjud. Shunga o'xshash bog'liqlik shaxsiy tashvishda ham kuzatildi ($r\approx-0.47\ldots-0.51$).

"Oila rasmi" metodikasi asosida olingan natijalarda bola rasmda o'zini chetda yoki kichik holatda tasvirlagan hollarda ularning tashvish darajasi yuqoriroq bo'lgan ($r=-0.27$). Bu bolaning o'zini oilaviy muhitda muhim deb hisoblamasligi, ijtimoiy o'rni past deb baholashini ko'rsatadi.

Shuningdek, bolalar tomonidan chizilgan rasmda ota-onaga bo'lgan yaqinlik iliq yoki tarqoq bo'lishiga qarab farqlanadi. Ota-onani iliq obrazda chizgan bolalarda xavotir past, salbiy obrazda chizgan yoki ota-onasiz chizgan bolalarda esa xavotir sezilarli darajada yuqoriroq ($r=-0.34$).

Ijtimoiy moslashuv ko'rsatkichlari ham bolalarning xavotirlanish darajasiga ta'sir qilgan. Do'stlar yoki tengdoshlar bilan chizilgan rasm, bolada ijtimoiy qo'llab-quvvatlov borligini, bu esa tashvish holatlarini kamaytirishini ko'rsatadi ($r=-0.29$).

Ichki psixologik ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqliklar orasida esa o'z-o'zini qadrlash, o'zini hurmat qilish va o'ziga bo'lgan ishonch o'rtasida kuchli musbat korrelyatsiyalar kuzatildi ($r=0.62-0.90$). Bu degani, bola o'ziga nisbatan ijobiy fikrda bo'lsa, bu holat bir-birini mustahkamlaydi.

Bu natijalar shuni ko'rsatadiki, bolalarda tashvishli holatlar ularning o'ziga munosabati, oilaviy iliqlik va ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog'liq. Xavotir kuchaygan sari bola o'zini past baholaydi, o'ziga ishonmaydi, tortinchoq bo'lib qoladi. Aksincha, iliq oilaviy munosabatlar, do'stlar bilan ijtimoiy aloqalar va o'zini qadrlash hissi bolaning xavotirini kamaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Иванова, Е. А. Психология семьи и детства / Е. А. Иванова. — М.: Академия, 2010. — 200 с.
2. Петров, В. Н. Эмоциональное развитие детей в условиях семейного кризиса / В. Н. Петров // Вестник психологии. — 2015. — №4. — С. 45-54.
3. Murodova M. Bolalar psixologiyasi. - Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, 2019. - 183 b.
4. Spilberger Ch.D., Xanin Yu.L. Shaxsiy va reaktiv tashvish darajasini o'lchash metodikasi. - M.: Psixologiya instituti, 1976. - 45 b.
5. Niyazmetova G.I. Shaxs psixodiagnostikasining proyektiv metodlari: Psixologlar uchun qo'llanma. — Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013. — 92 b.

